

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RABOYEV SAIDAXBOR SOLIJONOVICH

**KVATERNION VEKTOR FAZOLARDA BERILGAN YO‘LLARNING
 $Sp(n)$ GRUPPA TA‘SIRIGA NISBATAN EKVIVALENTLIGI**

01.01.01-Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Jo'raboyev Saidaxbor Solijonovich

Кватернион fazolarida berilgan yo'llarning $Sp(n)$ gruppaga ta'siriga nisbatan ekvivalentligi.....3

Журабоев Саидахбор Солижонович

Эквивалентность заданных путей в кватернионных векторных пространствах относительно действия группы $Sp(n)$21

Juraboyev Saidakhbor Solyjonovich

Equivalence of given paths in quaternion vector spaces with respect to the action of a group $Sp(n)$41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati.....45

Список опубликованных работ

List of published works

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RABOYEV SAIDAXBOR SOLIJONOVICH

**KVATERNION VEKTOR FAZOLARDA BERILGAN YO‘LLARNING
 $Sp(n)$ GRUPPA TA‘SIRIGA NISBATAN EKVIVALENTLIGI**

01.01.01-Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda algebra va geometriya masalalariga keltiriladi. Xususan, geometrik obyektlarni ma’lum gruppaga ta’siriga nisbatan tasniflash masalasi shular jumlasidandir. Egri chiziq, sirt, ko‘pxillik kabi geometrik obyektlarni tasniflash muammosi invariant parametr tushunchasini kiritish orqali ularga mos vektor funksiyalarning (yo‘llarning) ekvivalentlik masalasiga keltiriladi. Ushbu yondashuv buyuk olim Sofus Li g‘oyalari asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra ekvivalentlik masalasini hal etishda Li gruppasi ta’siriga nisbatan invariant funksiyalarning tavsiflash muammosini ko‘rib chiqish zarur. Bu turdagi masalalar proyektiv geometriya, noevklid geometriyasi va kompyuter grafikasi kabi fan tarmoqlarida alohida o‘rin egallaydi. Shu sababli kvaternion fazolarda berilgan yo‘llarning ekvivalentlik shartlarini aniqlash zamonaviy matematikada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirgi kunda kommutativ invariantlar nazariyasi bilan bir qatorda nokommutativ invariantlar nazariyasini o‘rganish, ularni algebraik, geometrik, analiz masalalariga tatbiq qilish fanning dolzarb mavzulariga aylanmoqda. Xususan, nokommutativ fazolarda berilgan geometrik obyektlarni tasniflash masalasini invariantlar nazariyasi usullaridan foydalanib o‘rganishda nokommutativ invariant tushunchalar va ularning algebraik-geometrik xususiyatlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Nokommutativ invariant tushunchalar va ularning algebraik-geometrik xususiyatlari hali to‘la ma’noda tavsif etilmaganligi, bunday masalalarni biror xususiy hollarda o‘rganish zaruratini tug‘diradi. Shu nuqtayi nazardan kvaternion fazolarda berilgan yo‘llarning simplektik gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalentligi masalasi maqsadli tadqiqotlardan biridir.

Mamlakatimizda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan va ishlab chiqarishda tatbiq etiladigan fundamental fanlarga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda turli geometrik obyektlarni ma’lum gruppaga ta’siriga nisbatan tasniflash masalalarini o‘rganish, ularni noevklid geometriyasi, kompyuter grafikasi va fanning boshqa sohalariga tatbiq qilish bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari hisoblangan “algebra va funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik tizimlar, geometriya va topologiya, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish” ixtisosliklari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi¹. Bunda kommutativ va nokommutativ invariantlar nazariyasi bo‘yicha ilmiy natijalarni ilm-fanning boshqa turdosh sohalarida qo‘llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qaror.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi № PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chiziqlarning Li gruppalari ta’siriga nisbatan ekvivalentlik masalalarini o‘rganish XX asr boshlarida E.Kartan tomonidan boshlangan bo‘lib, keyinchalik fanga “Kartan muammosi” nomi bilan kirib keldi. Bu muammoni harakatlanuvchi reppeplar usuli yordamida atroflicha o‘rganish Kartanning o‘zi tomonidan amalga oshirildi. Shuningdek, I.M.Yaglom tomonidan bir juft egri chiziqlarning ekvivalentlik masalasi $Sp(2n, \mathbb{R})$ gruppaga ta’siriga nisbatan hal etildi. Kartan muammosini o‘rganishdagi geometrik yondashuvlarni V.Blyashke, A.P.Shirokov, P.A.Shirokov, Yu.Aminov kabi olimlarning ishlarida ham ko‘rish mumkin. Bu olimlarning ishlarida masala Frene formulalari yordamida tadqiq qilingan bo‘lib, masala yechimi egrilik, buralish va boshqa geometrik tushunchalar orqali berilgan.

Ko‘p sonli egri chiziqlarning sistemalari uchun qo‘yilgan G -ekvivalentlik masalalarini o‘rganishda invariantlar nazariyasi usullari geometrik usullardan ko‘ra samaraliroq natijalarga olib keladi. Invariantlar nazariyasi usullaridan foydalanilganda Gilbertning 14-muammosini differensial analogini ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi. Bu turdagi masalalar bilan Dj.Xadjiyev va uning shogirdlari shug‘ullanishgan. Jumladan, chiziqli, maxsus chiziqli, ortogonal, maxsus ortogonal kabi gruppalar ta’siriga nisbatan invariant d -ratsional funksiyalar maydonining d -ratsional bazisini tiklash masalalari Dj.Xadjiyev, R.Aripov, A.Suktayeva, B.Tursunovlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Q.Q.Mo‘minov, I.V.Chilin, U.Bekbayev, I.Oren, O.Peksen va R.G‘afforovlarning ishlarida psevdootogonal, simplektik, Galiley gruppalariga nisbatan chiziqlar va sirtlarning ekvivalentlik masalalari hal qilingan.

Yuqoridagi masalalarni kvaternion vektor fazolarda o‘rganish va masala yechimini Frene formulalari yordamida aniqlashga bo‘lgan dastlabki urinishlarni S.M.Salamon, K.Bharatxi, M.Nakaraj, A.Ergin, T.Bayrakdar, S.Giardinho kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin. Gilbertning 14-muammosini nokommutativ

analogiga doir asosiy natijalar G.Almkvits, M.Domokos, F.Dumas, V.Drenskiy, E.Formanek, V.K.Xarchenko, A.N.Koryukin kabi olimlar tomonidan keltirib o'tilgan. Ammo kvaternion fazoning ixtiyoriy chiziqli almashtirishlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant ko'phadlar algebrasi va uni ekvivalentlik masalalariga tatbiq qilish muammosi hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Matematika" kafedrasining "Xususiy hosilali differensial tenglamalar, algebra, geometriya va analiz masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kvaternion fazoning simplektik almashtirishlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant, differensial ratsional funksiyalar jismini hosil qiluvchilari sistemasini tavsiflash va olingan natijalarni yo'llarning ekvivalentlik masalasiga tatbiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

simplektik almashtirishlar gruppasi va uning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant ko'phadlar algebrasining hosil qiluvchilari sistemasini tavsiflash;

simplektik almashtirishlar gruppasi va uning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant differensial ratsional funksiyalar maydonining (jismining) hosil qiluvchilari sistemasini aniqlash;

haqiqiy fazolarda berilgan yo'llarning simplektik almashtirishlar gruppasining haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan ekvivalent bo'lish shartlarini topish;

yo'llarning simplektik gruppaning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan ekvivalent bo'lishi shartlari asosida aniqlangan maxsus matritsaviy tenglamalar sistemasi yechimining yagonaligini isbotlash;

kvaternion fazolarda berilgan yo'llarning simplektik almashtirishlar gruppasi ta'siriga nisbatan ekvivalentlik masalasini hal qilishdan iborat.

Tadqiqotning obykti kvaternion fazo, simplektik almashtirishlar gruppasi invariant differensial ko'phadlar, kvaternion fazolarda berilgan yo'llar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti invariant matritsaviy funksiyalar, differensial invariant ko'phadlar, kvaternion matritsalar va ularning determinantlari, nokommutativ algebraga oid nazariy tushunchalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, differensial geometriya, gruppalar nazariyasi, invariantlar nazariyasi, chiziqli algebra, kvaternionlar algebrasi, differensial tenglamalar nazariyasi kabi fan tarmoqlariga tegishli tushunchalar va usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

simplektik almashtirishlar gruppasi va uning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant ko'phadlar algebrasining hosil qiluvchilari sistemasi aniqlangan hamda ular orasidagi munosabatlar topilgan;

simplektik almashtirishlar gruppasi va uning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant differensial ratsional funksiyalar maydonining (jismining) hosil qiluvchilari sistemasini tiklash haqidagi teoremlar isbotlangan;

haqiqiy fazoda berilgan yo'llarning simplektik almashtirishlar gruppasining haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan ekvivalent bo'lishini zaruriy va yetarli shartlari topilgan;

simplektik gruppaning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan yo'llarning ekvivalent bo'lish shartlari asosida aniqlangan matritsaviy differensial tenglamalar sistemasining yechimlari mavjud va yagonaligi invariant matritsaviy funksiyalar yordamida isbotlangan;

kvaternion fazolarda berilgan yo'llarning simplektik almashtirishlar gruppasi ta'siriga nisbatan ekvivalent bo'lish shartlari matritsaviy funksiyalar va bichizikli formalalar yordamida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olingan natijalar ba'zi Evklid bo'lmagan geometriyalarda obyektlarni kongruentlik shartlarini aniqlash va ularning mexanik ma'nolarini ishlab chiqishda qo'llanilgan;

nokommutativ algebra va nokommutativ geometriyaning turli masalalariga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalarini ishonchliligi matematik analiz, differensial invariantlar nazariyasi, gruppalar nazariyasi, chiziqli algebra, kvaternionlar algebrasining ma'lum fundamental tushunchalaridan foydalanilganligi hamda matematik mulohazalarning va isbotlarning qat'iyiligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati simplektik gruppasi va uning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta'siriga nisbatan invariant differensial formalarni qurish uslubi ishlab chiqilgan bo'lib, ular kvaternion fazolarda berilgan yo'llarni ekvivalentligi masalasini yechishda qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati differensial geometriya, noevklid geometriyasi, differensial tenglamalarni masalalariga tatbiq qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo'nalishda amaliyotga joriy qilingan:

simplektik almashtirishlar ta'siriga nisbatan yo'llarning ekvivalentligi masalalariga doir natijalar MD-758.2022.1.1 raqamli "Tebrani jarayonlari va to'yingan jarayonlarni o'rganish uchun kasr dinamikasining matematik modellarini ishlab chiqish" mavzusidagi xorijiy fundamental loyihadagi nokommutativ jarayonlarni geometrik obrazlarini tiklash masalalarini o'rganishda foydalanilgan (Vitus Bering nomidagi Kamchatka davlat universitetining 2023-yil 4-sentabrdagi № 40-12 ma'lumotnomasi). Natijalar nokommutativ geometriyalarda berilgan chiziqlarning ekvivalent bo'lishi shartlarini aniqlash imkonini bergan;

kvaternion fazolarda berilgan yo'llarning $Sp(n)$ gruppasi ta'siriga nisbatan ekvivalentligi tadqiqotida olingan ilmiy natijalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan OT-F-4-(37-29) raqamli "A-analitik

funksiyalarning funksional xossalari va ularning qo‘llanishi. Matritsaviy sohalarda kompleks analizning ba’zi masalalari” fundamental loyihada foydalanildi. Xususan, kvaternion fazolarda berilgan yo‘llarning simplektik gruppasi va uning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta’siriga nisbatan ekvivalentlik kriteriyasini o‘rnatishdagi matritsaviy funksiyalardan, invariant differensial ratsional funksiyalar va ular orasidagi munosabatlardan loyihadagi ba’zi matritsaviy sohalarda avtomorfizmlar gruppasini tasniflash masalalarini o‘rganishda qo‘llanildi, (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 8-sentabrdagi № 04/11-5324-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi, matritsaviy sohalar uchun avtomorfizmlar gruppasini tasniflash va ular yordamida integral formulalarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, shuningdek akademik A.Sadullayev rahbarligidagi shahar ilmiy seminarida, funksional analiz va uning tadbirlariga bag‘ishlangan shahar ilmiy seminarida (seminar rahbari f-m.f.d., prof. A.Raximov) muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining uztuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Boshlang‘ich ma’lumotlar**” deb nomlanuvchi bobi dissertatsiyaning asosini tashkil qiluvchi tushunchalarning ta’riflari va ulardan kelib chiquvchi ba’zi natijalarning tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, 4 ta paragrafdan iborat. Dastlabki, 1.1 va 1.2 paragraflarda kvaternion sonlar jismi, kvaternion fazo, uning simplektik almashtirishlari gruppasi va bu gruppaning haqiqiy tasvirlari gruppasi ta’riflari keltirilgan.

$\mathbb{H}^n - \mathbb{H}$ kvaternion sonlar jismi ustida aniqlangan (chap) vektor fazo bo‘lsin.

\mathbb{H}^n fazoda skalyar ko‘paytmani

$$\langle x, y \rangle = q_1 \bar{r}_1 + q_2 \bar{r}_2 + \dots + q_n \bar{r}_n \quad (1.6)$$

bichiziqli forma ko‘rinishida olamiz, bu yerda $x = \{q_i\}_{i=1}^n$, $y = \{r_i\}_{i=1}^n \in \mathbb{H}^n$.

Ta’rif 1.1 \mathbb{H}^n fazoning $\langle x, y \rangle$ metrik funksiyani o‘zida invariant saqlovchi chiziqli almashtirishlari gruppasi *simplektik grupp*a deyiladi va $Sp(n)$ ko‘rinishida belgilanadi, ya’ni

$$Sp(n) = \left\{ \sigma \in GL(\mathbb{H}^n) : \langle \sigma(x), \sigma(y) \rangle = \langle x, y \rangle, x, y \in \mathbb{H}^n \right\}, \quad (1.7)$$

Shuningdek simplektik grupp kvaternion matritsalar orqali quyidagicha ham ta’riflanadi,

$$Sp(n) = \left\{ g \in GL(n, \mathbb{H}) : g\bar{g}^T = \bar{g}^T g = E \right\},$$

bu yerda

$$GL(n, \mathbb{H}) = \left\{ g \in M(n, \mathbb{H}) : \text{ddet}g \neq 0 \right\}, \quad \text{ddet}g = \text{cdet}_i(g\bar{g}^T) = \text{rdet}_j(g\bar{g}^T),$$

E – n -tartibli, birlik kvaternion matritsa.

Aytaylik, $x_1, x_2, \dots, x_m \in \mathbb{H}^n$ ixtiyoriy vektorlar sistemasi bo‘lsin. U holda, quyidagi ko‘rinishdagi

$$\Gamma(x_1, x_2, \dots, x_m)(m) = \left(\langle x_i, x_j \rangle \right)_{i,j=1}^m$$

matritsa *Gram matritsasi* deyiladi. $\Gamma(x_1, x_2, \dots, x_m)(m)$ matritsa determinanti quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$\begin{aligned} \det \Gamma(x_1, \dots, x_n)(n) &:= \det_l \Gamma(x_1, \dots, x_n)(n) = \\ &= \sum_{\sigma \in S_n} (-1)^{n-\kappa} \langle x_l, x_{l_{m_1}} \rangle \langle x_{l_{m_1}}, x_{l_{m_1+1}} \rangle \dots \langle x_{l_{m_1+\delta_1}}, x_l \rangle \dots \langle x_{l_{m_\kappa}}, x_{l_{m_\kappa+1}} \rangle \dots \langle x_{l_{m_\kappa+\delta_\kappa}}, x_n \rangle \end{aligned}$$

bu yerda $S_n - \{1, 2, \dots, n\}$ to‘plam elementlaridan tuzilgan o‘rinlashtirishlar gruppasi, l –satr nomeri, $\sigma = (l, l_{m_1}, l_{m_1+1}, \dots, l_{m_1+\delta_1}) \dots (l_{m_\kappa}, l_{m_\kappa+1}, \dots, l_{m_\kappa+\delta_\kappa}) \in S_n$, κ –sikllar soni.

Natija 1.4 Agar $x_1, x_2, \dots, x_s \in \mathbb{H}^n$ vektorlar sistemasi chiziqli erkli bo‘lsa, $\det \Gamma(x_1, x_2, \dots, x_s)(s) > 0$ munosabat, aks holda ya’ni $x_1, x_2, \dots, x_s \in \mathbb{H}^n$ vektorlar chiziqli bog‘liq bo‘lsa, $\det \Gamma(x_1, x_2, \dots, x_s)(s) = 0$ munosabat o‘rinli bo‘ladi.

Aytaylik, $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ vektor \mathbb{H}^n fazoning ixtiyoriy elementi bo‘lsin. Quyidagi moslik \mathbb{H}^n fazoni haqiqiylashtirish operatsiyasi deyiladi va “ \approx_R ” ko‘rinishida belgilanadi:

$$x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \approx_R (x_{11}, x_{12}, x_{13}, x_{14}, x_{21}, x_{22}, x_{23}, x_{24}, \dots, x_{n1}, x_{n2}, x_{n3}, x_{n4}) = \vec{x} \quad (1.8)$$

bu yerda, $x_l = x_{l1} + x_{l2}i + x_{l3}j + x_{l4}k$, $l = \overline{1, n}$, $x_l \in \mathbb{H}$, $x_{lm} \in \mathbb{R}$, $m = \overline{1, 4}$.

\mathbb{H}^n fazoni haqiqiylashtirishdan hosil qilingan fazoni V orqali belgilaymiz. Tabiiyki, bu holda $\dim V = 4n$ tenglik kelib chiqadi.

Ta’rif 1.6. \mathbb{H}^n fazoda berilgan chiziqli erkli vektorlar sistemasini haqiqiylashtirishdan hosil qilingan sistema *kuchli chiziqli erkli vektorlar sistemasi* deyiladi.

Haqiqiylashtirish operatsiyasini $\langle x, y \rangle$ funksiyaga tatbiq qilib,

$$\langle x, y \rangle = \Omega_1(\bar{x}, \bar{y}) - \Omega_i(\bar{x}, \bar{y})i - \Omega_j(\bar{x}, \bar{y})j - \Omega_k(\bar{x}, \bar{y})k, \quad (1.9)$$

ifodaga ega bo‘lamiz, bu yerda $x, y \in \mathbb{H}^n$, $\bar{x}, \bar{y} \in V$,

$$\Omega_1(\bar{x}, \bar{y}) = \sum_{l=1}^n (x_{l1}y_{l1} + x_{l2}y_{l2} + x_{l3}y_{l3} + x_{l4}y_{l4}), \quad \Omega_i(\bar{x}, \bar{y}) = \sum_{l=1}^n (x_{l1}y_{l2} - x_{l2}y_{l1} + x_{l3}y_{l4} - x_{l4}y_{l3});$$

$$\Omega_j(\bar{x}, \bar{y}) = \sum_{l=1}^n (x_{l1}y_{l3} - x_{l3}y_{l1} + x_{l4}y_{l2} - x_{l2}y_{l4}); \quad \Omega_k(\bar{x}, \bar{y}) = \sum_{l=1}^n (x_{l1}y_{l4} - x_{l4}y_{l1} + x_{l2}y_{l3} - x_{l3}y_{l2}).$$

Yuqorida ta’riflangan haqiqiylashtirish operatsiyasi \mathbb{H}^n va V fazolar orasidagi o‘zaro bir qiymatli moslikni ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, har bir $\sigma \in GL(\mathbb{H}^n)$ almashtirishga $\sigma' \in GL(V)$ almashtirish bir qiymatli mos keladi.

Ta’rif 1.7. $Sp(n)$ gruppning *haqiqiy tasvirlari gruppasi* deb, quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $\sigma' \in GL(V)$ chiziqli almashtirishlar gruppasiga aytiladi:

$$\left\{ \begin{array}{l} \sigma' \in GL(V) : \Omega_1(\sigma'\bar{x}, \sigma'\bar{y}) = \Omega_1(\bar{x}, \bar{y}), \Omega_i(\sigma'\bar{x}, \sigma'\bar{y}) = \Omega_i(\bar{x}, \bar{y}), \\ \Omega_j(\sigma'\bar{x}, \sigma'\bar{y}) = \Omega_j(\bar{x}, \bar{y}), \Omega_k(\sigma'\bar{x}, \sigma'\bar{y}) = \Omega_k(\bar{x}, \bar{y}) \end{array} \right\}$$

$Sp(n)$ gruppning haqiqiy tasvirlari gruppasini $\mathfrak{Sp}(4n)$ bilan belgilaymiz (shartli ravishda).

Natija 1.5. $\mathfrak{Sp}(4n) \cong O(4n, \mathbb{R}) \cap Sp(4n, \mathbb{R})$.

Ushbu bobning 1.3 paragrafida kommutativ va nokommutativ o‘zgaruvchili G -invariant ko‘phadlar algebrasi va ushbu algebraning asosiy masalalari bayon qilinadi.

\mathbb{F}^n biror \mathbb{F} maydon ustida aniqlangan n o‘lchovli vektor fazo bo‘lsin. $\mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]$ orqali koeffitsientlari \mathbb{F} maydonga tegishli $\bar{x}_i \in \mathbb{F}^n$ vektor o‘zgaruvchili ko‘phadlar halqasini belgilaymiz. Har bir $g \in G \subset GL(n, \mathbb{F})$ matritsani $f \in \mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]$ ko‘phadga ta’sirini $(g \circ f) = f(\bar{x}_1g, \bar{x}_2g, \dots, \bar{x}_mg)$ ko‘rinishida olamiz.

Ta’rif 1.10. Agar barcha $g \in G$ uchun $(g \circ f) = f$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, $f \in \mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]$ ko‘phad G *gruppa ta’siriga nisbatan invariant* (qisqacha G -invariant) deyiladi.

Barcha G -invariant ko‘phadlar to‘plami $\mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]^G$ orqali belgilanadi va $\mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]^G \subset \mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]$ munosabat o‘rinli bo‘ladi. $\Sigma = \{\varepsilon_i\}_{i \in \Delta}$ to‘plam $\mathbb{F}[\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_m]^G$ halqa elementlaridan tuzilgan bo‘lsin, bu yerda Δ -tartiblangan natural sonlar to‘plami.

Ta’rif 1.11. Agar $\mathbb{F}[\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_m]^G$ halqaning ixtiyoriy elementi Σ to‘plam elementlariga halqa amallarini chekli marta qo‘llash orqali hosil bo‘lsa, Σ to‘plam *hosil qiluvchilar sistemasi* deyiladi.

German Veylning ishlarida $\mathbb{F} = \mathbb{R}$ haqiqiy sonlar maydoni, $\mathbb{R}^n - n$ -o‘lchovli haqiqiy fazo, $G = GL(n, \mathbb{R})$, $G = SL(n, \mathbb{R})$, $G = O(n, \mathbb{R})$, $G = SO(n, \mathbb{R})$, $G = Sp(2m, \mathbb{R})$ bo‘lgan hollar uchun $\mathbb{F}[\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_m]^G$ halqaning butun ratsional bazisi va ular orasidagi munosabatlar keltirib o‘tilgan.

Koeffitsientlari \mathbb{F} maydonga tegishli nokommutativ o‘zgaruvchili ko‘phadlarning ozod algebrasini G -invariant qism algebralari yuqoridagi ta’riflarga analog tarzda aniqlanadi va $\mathbb{F}\langle X \rangle^G$ ko‘rinishida belgilanadi, ya’ni

$$\mathbb{F}\langle X \rangle^G = \{f \in \mathbb{F}\langle X \rangle : (g \circ f) = f, g \in G \subset GL(n, \mathbb{F})\},$$

bu yerda X elementlari nokommutativ $x_i = \left(\xi_{ij}\right)_{i,j=1}^n$ kortejlar to‘plami.

$\mathbb{F}\langle X \rangle^G = \mathbb{F}\langle x_1, x_2, \dots, x_n \rangle^G$ orqali $\mathbb{F}\langle X \rangle^G$ ozod algebraning nisbatlar jismi belgilanadi. $\mathbb{F}\langle X \rangle^G$ jism elementlari G -invariant nokommutativ ratsional funksiya deyiladi.

1.4 paragrafda G -invariant differensial halqa, differensial maydon va ularning differensial ratsional bazislarini ta’riflari keltirilgan.

Ma’lumki, differensiallash amali kiritilgan halqa (mos holda, maydon) *differensial halqa yoki d-halqa* (mos holda, *d-maydon*) deyiladi.

Xususan, J. Xojiyev ishlarida differensiallash amali $d(ax_i) = ax_{i+1}$, $a \in A$, tenglik yordamida aniqlangan bo‘lib, $G = O(n, \mathbb{R})$, $G = SO(n, \mathbb{R})$ bo‘lgan hol uchun $\mathbb{R}\langle \vec{x} \rangle^G$ d -maydonning d -ratsional bazisi to‘la tavsif qilingan. Shuningdek, Q.Q.Mo‘minov, U.Bekbayev ishlarida $G = Sp(2m, \mathbb{R})$, $O(p, q, \mathbb{R})$ bo‘lgan hollar uchun $\mathbb{R}\langle \vec{x} \rangle^G$ d -maydonning d -ratsional bazisi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Simplektik grupp uchun $\mathbb{R}\langle x, \bar{x} \rangle^G$ differensial jismning hosil qiluvchilari sistemasi”** bobi \mathbb{H}^n fazoning simplektik almashtirishlari gruppasining (ya’ni, $Sp(n)$) ta’siriga nisbatan invariant, kvaternion o‘zgaruvchili d -ko‘phadlar algebrasi va uning hosil qiluvchilari sistemasini tavsiflash masalasiga bag‘ishlanadi. Tabiiyki bu holda, qaralayotgan algebra nokommutativ differensial o‘zgaruvchilarning ozod assotsiativ algebrasini ifodalaydi.

Masalani o‘rganishda haqiqiy holdagi analoglarini tekshirish maqsadga muvofiqdir. Shu sababdan bobning dastlabki 2.1 va 2.2 paragraflari $Sp(n)$ gruppining haqiqiy tasvirlari gruppasi ta’siriga nisbatan invariant d -ko‘phadlar halqasining hosil qiluvchilarini tavsiflash masalalariga bag‘ishlanadi.

Aytaylik, $\mathbb{H}^n \approx_R V$ va $\mathfrak{Sp}(4n)$ gruppasi berilgan bo'lsin. Shuningdek, $\{\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_{4n}\} \subset V$ sistema V fazoning bazis vektorlaridan iborat bo'lsin. $\mathbb{R}[\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_{4n}]^{\mathfrak{Sp}(4n)}$ orqali \mathbb{R} maydon ustida aniqlangan, $x_{l,m} \in \mathbb{R}$ noma'lumlarning $\mathfrak{Sp}(4n)$ -invariant ko'phadlari halqasini belgilaymiz.

Teorema 2.1. $G = \mathfrak{Sp}(4n)$ bo'lsin. U holda, har qanday G -invariant $f(\vec{x}_1, \dots, \vec{x}_s, \vec{\xi}_1, \dots, \vec{\xi}_r)$ ko'phad quyidagi

$$\Omega_\alpha(\vec{x}_l, \vec{\xi}_m), \alpha \in \{1, i, j, k\} \quad (2.1)$$

G -invariant bichiziqli formalar orqali butun ratsional ifodalanadi, bu yerda $\vec{x}_l \in V$, $\vec{\xi}_m \in V^*$, $V^* - V$ fazoga qo'shma fazoni ifodalaydi.

Ma'lumki, invariantlar nazariyasi kursining ikkinchi asosiy masalasi, *tipik bazis invariantlari orasidagi munosabatlarni aniqlashdan* iborat. Shunga asosan, quyida (8) sistema elementlari orasidagi munosabatlarni aniqlaymiz:

$B_1 = \{1, 2, \dots, n\}$ to'plam va bu to'plam elementlaridan tuzilgan o'rinlashtirishlarni S_n gruppasi berilgan bo'lsin. S_n gruppasi elementlarining

$$(1, l_{m_1}, \dots, l_{m_1+\Delta_1})(l_{m_2}, l_{m_2+1}, \dots, l_{m_2+\Delta_2}) \dots (l_{m_r}, l_{m_r+1}, \dots, n)$$

ko'rinishdagi yoyilmasidan foydalanib quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\nu = \left\{ (1, l_{m_1}), \dots, (l_{m_1+\Delta_1}, 1), (l_{m_2}, l_{m_2+1}), \dots, (l_{m_2+\Delta_2}, l_{m_2}), \dots, (l_{m_\kappa}, l_{m_\kappa+1}), \dots, (n, l_{m_\kappa}) \right\};$$

$$F_{\rho_\tau}^{\alpha_1, \dots, \alpha_n} = \Omega_{\alpha_1}(\vec{x}_{l_{m_{s_1}}}, \vec{x}'_{l'_{m_{s_1}}}) \Omega_{\alpha_2}(\vec{x}_{l_{m_{s_2}}}, \vec{x}'_{l'_{m_{s_2}}}) \dots \Omega_{\alpha_n}(\vec{x}_{l_{m_{s_n}}}, \vec{x}'_{l'_{m_{s_n}}});$$

$$A_\rho = \left\{ \rho_\tau \mid \rho_\tau : B_1 \rightarrow \nu \right\},$$

bu yerda $l_{m_s+\Delta_s} = \overline{1, n}$, $\Delta_s \in \mathbb{Z}_0^+$, $s = \overline{1, \kappa}$, $l_{m_2} < l_{m_3} < \dots < l_{m_r}$, κ - sikllar soni, ρ_τ - biyektiv akslantirish, $\alpha_1, \dots, \alpha_n \in \{1, i, j, k\}$, $\{l_{m_s}, l'_{m_s}\} = \rho_\tau^{-1}(m_s)$, $l_{m_s} < l'_{m_s}$, $m_s \in B_1$, $\tau = \overline{1, n}!$.

Lemma 2.1. V fazoda n tasi o'zaro kuchli chiziqli erkli $\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_m$, ($m \geq n$) vektorlar sistemasi berilgan bo'lsin. U holda, $\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_m$ vektorlar sistemasi uchun,

$$\begin{cases} F(\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_m) = \sum_{\rho_\tau \in A_\rho} (-1)^{n-\kappa} c_{\rho_\tau}^\alpha F_{\rho_\tau}^{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_m} \neq 0, \text{ agar } m = n \text{ va } \alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_m = \pm 1 \text{ bo'lsa;} \\ F(\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_m) = \sum_{\rho_\tau \in A_\rho} (-1)^{n-\kappa} c_{\rho_\tau}^\alpha F_{\rho_\tau}^{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_m} = 0, \text{ agar } m > n \text{ va } \alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_m = \pm 1 \text{ bo'lsa,} \end{cases}$$

munosabat o'rinli bo'ladi, bu yerda

$$c_{\rho_\tau}^\alpha = (-1)^t \text{sign}\{\alpha_1 \cdot \alpha_2 \cdot \dots \cdot \alpha_m\} \times \text{sign}\left\{ \Omega_{\alpha_1}(\vec{x}_{l_{m_{s_1}}}, \vec{x}'_{l'_{m_{s_1}}}) \Omega_{\alpha_2}(\vec{x}_{l_{m_{s_2}}}, \vec{x}'_{l'_{m_{s_2}}}) \dots \Omega_{\alpha_{n+1}}(\vec{x}_{l_{m_{s_{n+1}}}}, \vec{x}'_{l'_{m_{s_{n+1}}}}) \right\},$$

$t = \alpha_1 \cdot \alpha_2 \cdot \dots \cdot \alpha_m$ ko'paytmadagi mavhum birliklar soni.

$B_2 = \{1, 2, \dots, n+1, n+2\}$ to'plam va bu to'plam elementlaridan tuzilgan o'rinlashtirishlarni S_{n+2} gruppasi berilgan bo'lsin. S_{n+2} gruppasi elementlari

$$(n+2, 1, l_{m_1}, \dots, l_{m_1+\Delta_1})(l_{m_2}, l_{m_2+1}, \dots, l_{m_2+\Delta_2}) \dots (l_{m_k}, l_{m_k+1}, \dots, l_{m_k+\Delta_k}) \quad (*)$$

bog'liqmas sikllar yoyilmasi shaklida ifodalanadi, bu yerda $l_{m_s+\Delta_s} = \overline{1, n+2}$.

(*) yoyilmaga mos holda

$$\nu_1 = \{(n+2, 1)(1, l_{m_1}), \dots, (l_{m_1+\delta_1}, n+2), \dots, (l_{m_k}, l_{m_k+1}), \dots, (l_{m_k+\delta_k}, l_{m_k})\}$$

$$\nu'_1 = \{(1, l_{m_1}), \dots, (l_{m_1+\delta_1}, n+2), \dots, (l_{m_k}, l_{m_k+1}), \dots, (l_{m_k+\delta_k}, l_{m_k})\}$$

belgilashlarni kiritamiz. Shuningdek, ρ' orqali $\rho': B_1 \rightarrow \{1, 2, \dots, n+1\}$ biyektiv akslantirishni, bu ko'rinishdagi barcha ρ' akslantirishlar to'plamini esa $A_{\rho'}$ orqali belgilaymiz.

Lemma 2.3. *V fazoda dastlabki n tasi kuchli chiziqli erkli $\{\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_{n+1}, \vec{x}_{n+2}\}$ vektorlar sistemasi berilgan bo'lsin. Agar $\omega_1 \omega_2 \dots \omega_{n+1}$ ko'paytma $\pm 1; \pm i; \pm j; \pm k$ qiymatlarni ixtiyoriy bittasiga teng bo'lsa, u holda*

$$F'(\vec{x}_1, \vec{x}_2, \dots, \vec{x}_{n+1}, \vec{x}_{n+2}) = \sum_{\rho'_\tau \in A_{\rho'}} (-1)^{n+1-s} c_{\rho'_\tau}^\omega F_{\rho'_\tau}^{\omega_1, \omega_2, \dots, \omega_{n+2}} = 0 \quad (2.15)$$

munosabat o'rinli bo'ladi, bu yerda

$$c_{\rho'}^\omega = (-1)^t \text{sign}\{\omega_1 \cdot \omega_2 \cdot \dots \cdot \omega_{n+1}\} \times \\ \times \text{sign}\left\{\Omega_{\omega_1}(\vec{x}_{l_{m_{s_1}}}, \vec{x}_{l'_{m_{s_1}}}) \Omega_{\omega_2}(\vec{x}_{l_{m_{s_2}}}, \vec{x}_{l'_{m_{s_2}}}) \dots \Omega_{\omega_{n+1}}(\vec{x}_{l_{m_{s_{n+1}}}}, \vec{x}_{l'_{m_{s_{n+1}}}})\right\},$$

r – ko'paytmadagi mavhum birliklar soni, $\omega_l \in \{1, i, j, k\}$, $\{l_{m_s}, l'_{m_s}\} = (\rho'_\tau)^{-1}(m_s)$, $\tau = \overline{1, n+1}$, $m_s = \overline{1, n+1}$.

Sanoqli sondagi

$$x_1, x_2, \dots, x_{4n}, x_1^{(1)}, x_2^{(1)}, \dots, x_{4n}^{(1)}, \dots, x_1^{(n)}, x_2^{(n)}, \dots, x_{4n}^{(n)}, \dots$$

o'zgaruvchilarning haqiqiy koeffitsientli, $\mathfrak{Sp}(4n)$ -invariant d -ko'phadlari halqasi va uning d -nisbatlari maydoni mos holda, $\mathbb{R}\{\vec{x}\}^{\mathfrak{Sp}(4n)}$ va $\mathbb{R}\langle\vec{x}\rangle^{\mathfrak{Sp}(4n)}$ ko'rinishida belgilanadi. Quyidagi teoremda $\mathbb{R}\langle\vec{x}\rangle^{\mathfrak{Sp}(4n)}$ d -maydonning chekli hosil qiluvchilari sistemasi ko'rsatib o'tilgan.

Teorema 2.2. *$G = \mathfrak{Sp}(4n)$ bo'lsin. U holda, quyidagi*

$$\Omega_1(\vec{x}^{(r-1)}, \vec{x}^{(r-1)}), \Omega_\alpha(\vec{x}^{(r-1)}, \vec{x}^{(r)}), (r = \overline{1, n}, \alpha \in \{i, j, k\}) \quad (2.16)$$

$\mathfrak{Sp}(4n)$ -invariant ko'phadlar sistemasi $\mathbb{R}\langle\vec{x}\rangle^{\mathfrak{Sp}(4n)}$ d -maydonning chekli hosil qiluvchilari sistemasini ifodalaydi.

Bobning 2.3-paragrafi \mathbb{R} maydon ustida aniqlangan katernion noma'lumli nokommutativ $Sp(n)$ -invariant ko'phadlar halqasi va $Sp(n)$ -invariant

nokommutativ ratsional funksiyalar jismini hosil qiluvchilari sistemasini tavsiflashga bag‘ishlangan. Ularni mos holda $\mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n \rangle^{Sp(n)}$ va $\mathbb{R} x_1, \dots, x_n^{Sp(n)}$ ko‘rinishida olamiz. Shuningdek, halqa operatsiyalari bilan birgalikda

1) $(f^*)^* = f$, 2) $(a \cdot f)^* = a \cdot f^*$, 3) $(f + g)^* = f^* + g^*$, 4) $(f \cdot g)^* = g^* \cdot f^*$ shartlarni qanoatlantiruvchi $*$: $\mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n \rangle \rightarrow \mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$ amal ham qaraladi, bu yerda $f, g \in \mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$, $a \in \mathbb{R}$.

Xususan, kvaternion noma’lumli ko‘phadlar halqasida $*$ -amalni ermit qo‘shma amali sifatida olamiz va f^* belgilashni \bar{f} bilan almashtiramiz. Shuningdek, $\mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$ yozuvni $\mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n; \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n \rangle$ bilan almashtiramiz.

Teorema 2.3. $\mathbb{R}\langle x_1, \dots, x_n; \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n \rangle^{Sp(n)}$ halqaning har qanday elementi $\langle x_l, x_m \rangle$ bichiziqli formalarga halqa amallarini qo‘llash orqali hosil qilinadi.

Teorema 2.4. $\mathbb{R} x_1, \dots, x_n, \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n^{Sp(n)}$ jismning har qanday elementi $Sp(n)$ -invariant nokommutativ ko‘phadlar orqali ratsional ifodalanadi.

2.3 va 2.4 teoremlardan quyidagiga ega bo‘lamiz:

Natija 2.7. $\langle x_l, x_m \rangle$ bichiziqli formalar $\mathbb{R} x_1, \dots, x_n, \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n^{Sp(n)}$ jismning tashkil etuvchilari sistemasini ifodayladi.

2.4 paragrafda olingan natijalar 2.3-paragrafda olingan natijalarni differensial analogini ifodalaydi.

$\mathbb{R} x_1, \dots, x_n; \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n$ jismda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi

$\delta: \mathbb{R} x_1, \dots, x_n \rightarrow \mathbb{R} x_1, \dots, x_n$ amal aniqlangan bo‘lsin:

- 1) $\forall x_l \in H^n$ uchun $\delta(x_l) = x_{l+1}$;
- 2) $\forall a \in \mathbb{R}$ va $\forall x_l \in H^n$ uchun $\delta(ax_l) = d(a)x_l + ax_{l+1}$.

Tabiiyki, agar $x_l \in \mathbb{H}^n$ vektorning komponentlarini haqiqiy o‘zgaruvchili kvaternion funksiyalardan iborat vektor funksiya sifatida qarasaq, u holda δ -amalni $\mathbb{R} x_1, \dots, x_n; \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n$ jism differensial sifatida olishimiz mumkin. Bu holda, $\mathbb{R} x_1, \dots, x_n; \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n$ jism δ -amal bilan birgalikda differensial jismni (d -jismni) tashkil qiladi. Quyida, δ -amalni ta’rifiga asosan $x_l = x^{(l)}$, $\delta(x^{(l)}) = x^{(l+1)}$ belgilashni kiritamiz. Natijada, $\mathbb{R} x_1, \dots, x_n; \bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n$ d -jismni $\mathbb{R} x, \bar{x}$ ko‘rinishida yozishimiz mumkin.

Teorema 2.5. $G = Sp(n)$ bo‘lsin. U holda, $\mathbb{R} x, \bar{x}^G$ d -jismning har qanday elementi

$$\langle x^{(l)}, x^{(m)} \rangle, l, m \in \mathbb{Z}_0^+ \quad (2.32)$$

G -invariant nokommutativ d -ko‘phadlarga jism munosabatlari va differensiallash amalini qo‘llash orqali hosil qilinadi.

Ushbu teorema 2.3-natijani differensial analogini ifodalaydi.

Teorema 2.6. $G = Sp(n)$ bo'lsin. U holda, quyidagi

$$\langle x^{(r-1)}, x^{(r-1)} \rangle, \langle x^{(r-1)}, x^{(r)} \rangle, r = \overline{1, n} \quad (2.33)$$

G -invariant nokommutativ d -ko'phadlar sistemasi $\mathbb{R} x, \bar{x}^G$ d -jismning tashkil etuvchilari sistemasini ifodalaydi.

Uchinchi bob "Kvaternion fazolarda berilgan yo'llarning $Sp(n)$ gruppata'siriga nisbatan ekvivalentligi" deb nomlanib, 3 ta paragrafdan iborat.

Bobning 3.1-paragrafida haqiqiy sonlar maydoni ustida aniqlangan vektor fazolarda berilgan yo'l tushunchasi, ularning turlari, G -ekvivalent bo'lish ta'rifi va $\mathfrak{Sp}(4n)$ gruppata'siriga nisbatan ekvivalent bo'lishini zaruriy va yetarli shartlari berilgan.

Aytaylik, \mathbb{F} haqiqiy yoki kompleks sonlar maydoni bo'lsin. X orqali \mathbb{F} maydon ustida aniqlangan n o'lchovli vektor fazoni, \mathfrak{S} orqali haqiqiy sonlar to'plamidagi ixtiyoriy (a, b) oraliqni belgilaymiz, (bu holda, $a = -\infty$ yoki $b = \infty$ bo'lishi mumkin).

Ta'rif 3.1. \mathfrak{S} oraliqni X fazoga uzluksiz akslantiruvchi $\bar{x}(t) = \{x_i(t)\}_{i=1}^n$ vektor funksiyaning har bir $x_i(t)$ koordinatasi \mathfrak{S} oraliqda cheksiz marta differensiallanuvchi funksiyani ifodalasa, $\bar{x}(t)$ vektor funksiya \mathfrak{S} -yo'l deyiladi.

$\bar{x}(t)$ \mathfrak{S} -yo'lning r -tartibli hosilasi deb, $(x_1^{(r)}(t), \dots, x_n^{(r)}(t))$ koordinatali vektor funksiyaga aytiladi va $\bar{x}^{(r)}(t)$ ko'rinishida belgilanadi.

Agar barcha $t \in \mathfrak{S}$ uchun $\bar{x}^{(1)}(t) = (\bar{x}(t))' \neq 0$ munosabat o'rinli bo'lsa, $\bar{x}(t)$ \mathfrak{S} -yo'l *regulyar* deyiladi.

